


● **Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari**





O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki



Mundarija

- 01** Kirish
- 02** Korrupsiyaga oid tushunchalar
- 03** Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari
- 04** Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari
- 05** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari
- 06** Markaz bank xodimlarining mehnat shartnomasida belgilangan korrupsiyaga qarshi kurash yuzasidan majburiyatlar.



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki



“Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi”

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev

2025-yil 5-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tgan.



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki



Korrupsiyaga oid tushunchalar



Korrupsiya nima?

korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;



Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Manfaatlar to'qnashuvi

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlar o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat.





Korrupsiya shakllari



Rastrata qilish

agent yoki vasiy sifatida qonuniy ravishda ishonib topshirilgan mol-mulk yoki mablag'larni o'zlashtirishdir.

Mavqeyini suis'temol qilish

boshqa tomon uchun imtiyoz olish maqsadida boshqaruvdagi shaxslar hukumat yoki ularning aloqalari ta'siridagi foydalansih amaliyoti - odatda ma'lum to'lov evaziga.



Korrupsiyaning boshqa shakllari

Firibgarlik;

Xomiylik;

Mayda bezorilik va boshqalar;

Maishiy va siyosiy korrupsiya;

Talab qilinadigan va taklif qilinadigan korrupsiya;

Aktiv va passiv korrupsiya.



Nepotizm/kronizm

Nepotizm (qarindosh-urug'chilik) — bu ishga qabul qilish yoki lavozimni oshirishda qarindoshlar yoki do'stlarga ularning qobiliyatidan qat'i nazar, imtiyoz berishdir. Bu favoritizm turi bo'lib, munosib nomzodlar o'rniga yaqinlarni tanlashni anglatadi.

Kronizm (yaqin do'st, og'ayni) – bu siyosat yoki biznesda yuqori lavozimdagi shaxsning o'z do'stlari, yaqinlari yoki ishonchli shaxslarini, ularning malakasi va tajribasiga qaramay, rahbarlik lavozimlariga tayinlash yoki ularga imtiyozlar berish amaliyotidir.



01

Ma'muriy korrupsiya

Ma'muriy vakolatlardan foydalanib, shaxsiy manfaat ko'zlab qarorlar qabul qilinishi.

Misol: Ruxsatnomalar, litsenziyalar yoki grantlar berishda qarindoshlarga imtiyozlar berilishi.

02

Siyosiy korrupsiya

Siyosiy lavozimdagi shaxslarning o'z vakolatlaridan foydalanib, siyosiy manfaat yoki moliyaviy foyda olishi.

Misol: Saylovlarda ovozlarni sotib olish yoki mansab taqsimotida pora olish.

03

Maishiy korrupsiya

bu oddiy fuqarolarning davlat organlari, ta'lim. sog'liqni saqlash, ichki ishlar, kommunal xizmatlar va shu kabi kundalik hayotdagi xizmatlardan foydalanishda yuzaga keladigan mayda, ammo keng tarqalgan korrupsion holatlardir.

Misol: Tibbiyot muassasida shifokorga "raxmat puli" berish.



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari

01 qonuniylik;

02 fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

03 ochiqlik va shaffoflik;

04 tizimlilik;

05

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

06

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

07

javobgarlikning muqarrarligi.



Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

01

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

02

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

03

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlash.



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki



Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari



O'zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi
kurashish agentligi



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi



O'zbekiston Respublikasi
Davlat xavfsizlik xizmati



O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi



O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokuraturasi



Bosh prokuratura huzuridagi
Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi
kurashish departamenti

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi huquqbuzarliklar uchun qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlik turlari

Jinoyat kodeksi moddasi	Jinoiy qilmish nomi	Eng yuqori sanksiyasi
167, 168-moddalar	Mansab mavqeyini suiste'mol qilish yo'li bilan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish; Xizmat mavqeyidan foydalanib firibgarlik sodir etish.	10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish
192 ⁹ -moddasi	Tijoratda pora evaziga og'dirib olish.	8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish
192 ¹⁰ -moddasi	Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish.	1 yilgacha axloq tuzatish ishlari
192 ¹¹ -moddasi	Nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suis'temol qilish	10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish
205, 206, 209-moddalar	Hokimiyat yoki mansab vakolatini suis'temol qilish; Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish; Mansab soxtakorligi	5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish

Korrupsiyaga qarshi huquqbuzarliklar uchun qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlik turlari

Jinoyat kodeksi moddasi	Jinoiy qilmish nomi	Eng yuqori sanksiyasi
210, 211, 212-moddalar	Pora olish; Pora berish; Pora olish-berishda vositachilik qilish.	15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish
213, 214-moddalar	Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisining pora evaziga og'dirib olish; Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moqddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi.	8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish
243-moddasi	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish	10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish
301-moddasi	Hokimiyatni suiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi	20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

THANK YOU!

**E'tiboringiz
uchun raxmat !!!**



71-212-73-83



<https://cbu.uz>



Cbu.anticor@cbu.uz



<https://t.me/Cbu.anticor>